

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-SENTABR

ANDIJON, 2024

HOZIRGI ZAMON TILSHUNOSLIGIDA NUTQIY MULOQOT MUAMMOLARINI  
BARTARAF ETISHDA TIL NORMALARIGA RIOYA ETISHNING AHAMIYATI

Valiyeva Dildora Kamalovna

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda tilning jamiyat va shaxs hayotidagi o'rni, uni egallashda va undan to'g'ri foydalanishda inson amaliy faoliyatining xususiyatlari, ijtimoiy va tabiiy muhit sharoitlari ifoda etilgan. Shu bilan birga maqola bilan tanishgan o'quvchi pragmatika haqida ham boshlang'ich bilimlarga ega bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** Til, nutq, lisoniy belgilar, semantika, pragmatika, til normasi, xushmuomalalik kategoriyasi, nutq madaniyati.

## Kirish

Turli ijtimoiy vaziyatlarda nutqiy muloqotni tashkil etish va undan to'g'ri foydalanish ma'lum bir til normalari, kategoriyalarini samarali ishlatalishni talab etadi. Nutq madaniyati avvalo, to'g'ri, adabiy til meyorlariga amal qilgan holda so'zlashishdir. Nutq madaniyatining yuqori darajadagi madaniyatli kishining ajralmas xususiyati hisoblanib, nutqimizni yaxshilash har bir kishining vazifasidir. Buning uchun talaffuzda, so'z shakllaridan foydalanishda, jumlalarni tuzishda xato qilmaslik uchun nutqimizni muntazam kuzatib va tuzatib borishimiz kerak. Mazkur dissertatsiya ishida bu borada bir qator tilshunoslar olib borgan ilmiy izlanishlar ko'rib chiqildi va nutq madaniyatining naqadar muhimligi, uning samarali tashkil etilishi til me'yorlariga tayangan holda olib borilishi misollar orqali isbotlandi.

## Asosiy qism

Ikki madaniyat – ingliz va o'zbek madaniyatlarda xushmuomalalik kategoriyasi muhim o'rin tutishi, bu esa o'z navbatida samarali nutqiy muloqotni tashkil etishning asosiy negizidir. Inson nutqi uning madaniyatida harakat qiladi va aks etadi, bu yozilmagan qoida xushmuomalalik printsipi bo'lib, u turli madaniyatlarda xulq - atvor, odob ahloq va xushmuomalalik tamoyillarini aks ettiradi. Nutqiy muloqot jarayonida holatga mos tilni qo'llash va xushmuomalalik ko'rsatish xulq atvori muvaffaqiyatning asosiy elementi ekanligi isbotlandi. Kontekstga bog'liq bo'lgan holda, odamlar muntazam ravishda nima odobli va nima odobsiz deb baholanishi haqida hukm chiqaradilar. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy vaziyatlarda kommunikativ tilning xususiyatlariga ko'ra undan oqilona va samarali foydalanish tamoyilini qabul qilgan holda ijobiy natijaga erishishni talab qiladi. Mazkur ishda samarali nutqiy muloqotni tashkil qilishda xushmuomalalikning hal qiluvchi roli o'zaro munosabatlar uchrashuvining o'ziga xos to'plamlari bilan bog'liq holda kuzatildi.

Pragmatika til belgilarinining nutqdagi harakatini o'rganuvchi tilshunoslikning tatqiqot doirasi bo'lib, nutqiy muloqot rivojida asosiy o'rin tutishi, lingvistik pragmatika aniq shaklga ega emas ekanligi, uning tarkibiga so'zlovchi va tinglovchiga, ularning nutq jarayonidagi o'zaro munosabatiga bog'liq masalalar majmui kirishi tahlil qilindi. Kommunikativ faoliyat turli xildagi bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi, bulardan, masalan, lisoniy bilim til tizimi tuzilishi bilan bog'liq bo'lsa, qomusiy bilim esa vogelikni aks ettiradi va nihoyat, interaktiv bilim o'zaro munosabat asosida turgan, ijtimoiy guruh uchun umumiyl bo'lgan qoidalar to'plamini bilishni taqozo etadi. Shunday ekan, har bir muloqot ishtirokchisi suhbat jarayonida belgilangan muloqot normalariga rioya etishi va ijtimoiy vaziyatni hisobga olgan holda kerakli so'zlarni, hamda nutq birliklarini to'g'ri tanlay olishi kerakligi, shundagina nutqiy muloqotda kutilgan samaraga va pragmatik effektga erishish mumkinligi xulosa o'rnida qabul qilindi.

Shu bilan birga nutqiy muloqotni tashkillashda til normasining muhimligi va uni o'zbek tilining rivojlanishidagi tutgan o'rni haqida ma'lumotlat o'rganilib tahlil qilindi. Til

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

**30-SENTABR**

**ANDIJON,2024**

normasi termini tilshunoslikda ko‘pincha ikki xil manoda tushuniladi. Birinchidan, tildagi umumjamoa tomonidan qabul qilingan va mustahkamlangan qo‘llanishlar yig‘indisi norma deb yuritiladi, ikkinchidan, norma deb grammatik ma’lumotlarda, lug‘atlarda, ilmiy manbalarda tavsiya qilingan, mashxur yetakchi yozuvchi yoki shoirlar asarlaridan keltirilgan nufuzli faktlar bilan isbot qilingan va mustahkamlangan qoida tushuniladi. Til normasi nutqiy muloqotni samarali tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Til normasi haqida gapirar ekanmiz, til sistemasining ham muhimligini unutmasligimiz kerakligi, til sistemasi bu tildagi barcha mavjud imkoniyatlar yig‘indisidan iborat bo‘lib, norma tilning vositaviy imkoniyatlarining nutqdagi amalga oshgan holatlari yig‘indisidan iboratdir ekanligi tahlil qilindi va konkret tilning konkret davrdagi normasini o’sha til sistemasi imkoniyatlaridan amalda qo‘llangan – reallashgan holati belgilashi aniqlandi.

## Xulosa

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, turli ijtimoiy guruhda kelib chiqqan odamlar ishtirokidagi turli xil o‘zaro kontekstlarda maqbul, mos, ijobiy xatti-harakatlarni o‘rnatish va nutqiy muloqotni tashkil etish murakkab masala bo‘lib, bir qator ijtimoiy, kontekstual, diskursiv va lingvistik omillarni hisobga oladi. Insonlar samarali muloqotni amalga oshirishda va ma’lum bir kontekstda kerakli tasvirni taqdim etishda ongli tanlov qilishlari uchun kontekstual omillarga va ularning maqsadli tildagi mumkin bo‘lgan ma’nolariga e’tibor berish kerakliklari mazkur dissertatsiya ishida batavsil muhokama qilinadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Maqsudova M.A. “ Muloqot psixologiyasi”. Toshkent 2006. nauchniyimpuls.ru 2. Sh. Hamroyev “Zamon va yoshlar nutqi”. Toshkent 2020.
3. A.Musayev “Nutqiy muloqotni shakllantirish omillari va uning asosiy xususiyatlari”. 1998. jdpu.uz.
4. “Til va nutq”. Ne’matov X. , Bozorov A. Toshkent 1993.
5. Aslonov I. N. “Ijtimoiy faoliyat va muomala Psixologiyasi”. Toshkent 2019. americanjournal.org
6. Brown P, Levinson S “Politeness” Cambridge, 198